

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hayitova H.G'.	Fransuz veterinariya atamaları: leksik-semantik va madaniy xususiyatlari	149
Jalilova L.J., Hamidova X.N.	Strategies and solutions to overcome linguistic and ethnic barriers in translation	154
Esanov A.Sh.	Advancing psycholinguistic experiments: the role of computer-assisted tools	158
Djumaniyazova E.K.	Sohalardagi neologizmlarning tizimli rivojlanishi (muhandislik va qurilish sohalari misolida)	165
Davlatova A.A.	Bolalar nutqida jonlantirish uslubiy vosita sifatida	169
Bobokalonov R.R., Bekmurodova S.M.	Social significance of neuropsycholinguistics	173
A'zamov S.M.	Turli tizimli tillar qiyosida leksik-semantik maydon lakunarligi	178
Tursunova O.T.	Somatik komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari to'g'risida	183
Юсупова Ш.М.	Лингвокогнитивные особенности этнолингвистических аспектов табуированной лексики русского и узбекского языков	187
Rasulov Z.I., Shodiyeva D.S.	Ommaviy axborot vositalari diskursida voqealarning lingvistik talqini: interpretatsion-kognitiv yondashuv	192
Юлдашева Д.М.	Язык и музыка в свете идей Эдварда Сепира	196
Ikromova L.B.	Fransuz maqollarida milliy-madaniy freymlar tahlili	200
Yaxyoyeva U.I.	O'zbek xalq maqollarida salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi ekspressiv aktlar	205

FRANSUZ MAQOLLARIDA MILLIY-MADANIY FREYMLAR TAHLILI

Ikromova Lola Boltayevna,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

l.b.ikromova@buxdu.uz

ORCID ID 0000-0003-2948-2317

Annotatsiya. Mazkur maqolada, fransuz maqollari milliy madaniyat ko'zgusi bo'lib, ehtiyotkorlik, tajriba, qat'iyat, do'stlik va hayot quvonchi kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Shuningdek, maqollar bu har bir xalqning madaniy merosidir. Ularda, xalqning barcha o'y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l - atvori va e'tiqodi nomoyon bo'ladi. Fransuz va o'zbek maqollaridagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy-madaniy rang-baranglikni ta'minlaydi. Maqolada bir qancha maqolalardan misollardan keltiriladi.

Ushbu maqolada fransuz va o'zbek maqollarining milliy-madaniy freymlar nuqtayi nazaridan o'rganilishi taqdim etilgan. Tadqiqot davomida har ikki tilga mansub maqollarda xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va axloqiy qadriyatlari aks etishi tahlil qilindi. Maqolada asosiy e'tibor fransuz va o'zbek maqollarida keng uchraydigan "baxt", "mehnat", "oila" va "omad" kabi freymlarga qaratilib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari fransuz maqollarida individualistik yondashuv, ratsionalizm va ijtimoiy moslashuv yetakchilik qilishini, o'zbek maqollarida esa jamoatchilik fikri, an'anaviy tarbiya va axloqiy-me'yoriy qadriyatlar ustunlik qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: fransuz maqollari, o'zbek maqollari, milliy-madaniy freymlar, lingvokulturologiya, semantika, mentalitet, madaniy tafovut, xalq donoligi, frazeologiya, tarjima muammolari.

ANALYSIS OF NATIONAL-CULTURAL FRAMES IN FRENCH PROVERBS

Abstract. In this article, French proverbs are considered as a reflection of national culture, embodying values such as prudence, experience, determination, friendship, and joy of life. Proverbs also represent the cultural heritage of each nation, expressing the people's thoughts, worldview, lifestyle, character, and beliefs. While the themes of French and Uzbek proverbs are similar, the imagery used in them is unique. These distinctive depictions contribute to the national-cultural diversity of proverbs. The article provides examples of various proverbs to illustrate these differences.

This study presents an analysis of French and Uzbek proverbs from the perspective of national-cultural frames. During the research, the reflection of people's worldview, mentality, and moral values in proverbs of both languages was examined. The study focuses on frequently occurring frames such as "happiness", "labor", "family" and "luck" in French and Uzbek proverbs, analyzing their semantic and pragmatic features in a comparative manner. The results indicate that French proverbs emphasize individualism, rationalism, and social adaptation, whereas Uzbek proverbs prioritize public opinion, traditional upbringing, and moral-ethical values.

Keywords: French proverbs, Uzbek proverbs, national-cultural frames, linguoculturology, semantics, mentality, cultural differences, folk wisdom, phraseology, translation issues.

АНАЛИЗ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ФРЕЙМОВ ВО ФРАНЦУЗСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация. В данной статье французские пословицы рассматриваются как отражение национальной культуры, воплощающие такие ценности, как осторожность, опыт, решительность, дружба и радость жизни. Пословицы также представляют собой культурное наследие каждого народа, выражая его мысли, мировоззрение, образ жизни, характер и верования. Хотя темы французских и узбекских пословиц схожи, используемые в них образы уникальны. Именно эти своеобразные образы обеспечивают национально-культурное разнообразие пословиц. В статье приводятся примеры различных пословиц, иллюстрирующих эти различия.

В данном исследовании представлен анализ французских и узбекских пословиц с точки зрения национально-культурных фреймов. В ходе исследования был проведен анализ отражения мировоззрения, менталитета и моральных ценностей народа в пословицах обоих языков. Основное внимание в статье уделяется наиболее распространённым фреймам, таким как "счастье", "труд",

“семья” и “удача” во французских и узбекских пословицах, а также их семантическим и прагматическим особенностям в сравнительном аспекте. Результаты исследования показывают, что французские пословицы подчеркивают индивидуализм, рационализм и социальную адаптацию, тогда как узбекские пословицы акцентируют внимание на общественном мнении, традиционном воспитании и морально-этических ценностях.

Ключевые слова: Французские пословицы, узбекские пословицы, национально-культурные фреймы, лингвокультурология, семантика, менталитет, культурные различия, народная мудрость, фразеология, проблемы перевода.

Kirish. Maqol va matallar xalq donishmandligining yorqin ifodasi bo‘lib, ular orqali milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar avloddan avlodga yetkazib beriladi. Har bir xalqning maqol va matallar tizimi uning o‘ziga xos dunyoqarashini, ijtimoiy hayotga munosabatini hamda qadriyatlarini aks ettiradi. Freymalar esa til orqali ifodalangan tushunchalar tizimi bo‘lib, ularning shakllanishi madaniyat bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqolada fransuz maqollarida freymalar orqali milliy- madaniylik aks etadi.

Fransuz maqollarida milliy- madaniy freymalar deganda, biz fransuz xalqining tarixiy, madaniy, ijtimoiy va ma‘naviy qadriyatlarini namoyon qiluvchi tildagi tayyor iboralar tushuniladi. Freymalar -ma‘lum bir madaniyatga xos bo‘lgan tushunchalar tizimi bo‘lib, ular maqollarda xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, qadriyatlari va urf-odatlarini bilan bog‘liq holda bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Freym haqida yana shuni ta‘kidlashimiz kerakki, Freymning tabiati va uning asosiy belgilari haqida bildirilgan jahon va o‘zbek tilshunosligidagi fikr-mulohazalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, turli tadqiqotlarda mazkur tushunchaga berilgan ta‘riflar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi va bir-birini taqazo etadi. Freymda asosiy tushuncha (obraz) va uning atrofidagi yordamchi obrazlar bo‘ladi[4;c.15-16]. U asosiy obyekt (obraz yoki motiv) tafsilotlari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Shuningdek, maqollardagi obyekt va sub‘ektlar munosabati haqidagi bilimlar ham freymdir. Har bir xalqning o‘ziga xos tabiati, turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy-madaniyatiga ega bo‘lgani kabi maqollarida ham bu o‘ziga xoslik yorqin namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqoladan kutilayotgan asosiy maqsad fransuz maqollarida freymalarning milliy-madaniy jihatdan tahlil qilishdir. Shuningdek, maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik va qiyosiy tadqiqot metodlarini ham o‘z ichiga oladi. Fransuz maqollaridagi milliy-madaniylikni ifodalovchi freymalarni, o‘zbek tilidagi maqollarni taqqoslash orqali o‘rganamiz. Maqollarni semantik tomondan qaraydigan bo‘lsak, ularni tarkibidagi milliy- madaniy freymalarni xususan, o‘zbek tilidagi maqollar bilan qiyoslashimiz mumkin. Bundan tashqari, biz nazarimizni diskursiv tahlilga qaratsak, bunda maqollarni ijtimoiy-madaniy kontekstda o‘rganamiz. Ya‘ni ularning qo‘llanilish xususiyatlarini tahlilga tortamiz. Fransuz maqollarida milliy-madaniy freymalarni tahlil qilish bo‘yicha bir qator olimlarning ilmiy ishlari mavjud. Quyida ushbu mavzuga oid ba‘zi muhim tadqiqotlardan namunalar keltiramiz:

Ayrapetyan Irina “Fransuz, o‘zbek va rus tili maqollarida mentalitet va milliylik talqini” nomli maqolasida uch til – o‘zbek, fransuz va rus tillaridagi maqollar orqali xalq mentaliteti va milliylikning ifodalanishi tahlil qiladi[1]. Maqolada maqollarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va solishtirishning o‘ziga xos afzalliklari ko‘rsatib beradi. Shuningdek, A.A. Nasirovning doktorlik dissertatsiyasida fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy o‘rganilgan[2]. Yana bir tadqiqotchi J.A.Yakubovning “Fransuz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari” nomli maqolasida ham o‘zbek va fransuz maqollarining lingvokulturologik jihatlari tahlil qilinib, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi, maqollarning mavzu jihatidan o‘xshash tomonlari va ulardagi mentalitet hamda milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalar ko‘rib chiqilgan[3]. Ushbu tadqiqotlar fransuz maqollaridagi milliy-madaniy freymalarni tahlil qilishimizda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar va uning muhokamasi. O‘rganilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, maqollarda turli xil freymalar aks etadi. Ya‘ni fransuz maqollarida shaxsiy muvaffaqiyat, ijtimoiy tenglik, do‘stlik, muhabbat, oila kabi mavzular yetakchi o‘rin tutadi. Biz buni misollarda ko‘rib chiqamiz:

1. Oila freymi:

“Qui prend mari prend pays” tarjimasi: “Kim turmushga chiqsa, u yangi yurtida yashaydi”. Ushbu maqol oila qurish jarayonida insonning nafaqat yangi oilaga, balki yangi muhit va urf-odatlarga moslashishi zarurligini ta‘kidlaydi. Bu fransuz madaniyatida turmush qurishni shaxsiy erkinlik va ijtimoiy majburiyat o‘rtasidagi muvozanat sifatida tushunish bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi “**Oila – bu kichik vatan**” maqoliga mos keladi. Ya‘ni, oila jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Oila insonning tarbiyasi, axloqiy qadriyatlari shakllanadigan joy bo‘lib, u milliy mentalitet va an‘analarni negizidir.

2. Do‘stlik freymi:

Fransuz tilidagi “*Un ami dans le besoin est ami en effet*” maqoli o‘zbek tilidagi tarjimasida *Qiyin paytda yordam bergan do‘st – haqiqiy do‘st*, o‘zbek tilidagi “*Do‘st kulfatda sinalar*” maqoliga to‘g‘ri keladi.

3. Boylik va qashshoqlik freymi:

Fransuzcha maqol: *C’est quand le puits est sec que l’eau devient richesse* tarjimasida: *Quduq quriganda, suv boylikka aylanadi*, o‘zbek tilidagi “*Suvsaganga sarob suv bo‘lib ko‘rinar*” maqoliga ekvivalent bo‘ladi. Bu maqol fransuz jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish va boylikning ahamiyatini aks ettiradi.

4. Muomala freymi:

“*Habit somptueux ne donne pas les bonnes manieres*” fransuz maqolining tarjimasida: “*Qimmatbaxo kiyim yaxshi xulq-atvor bermaydi*”. maqoli shuni anglatadiki, insonning tashqi ko‘rinishi, kiyimi yoki hashamatli liboslari uning yaxshi odob-axloq qoidalariga rioya qilishini kafolatlamaydi. Chiroyli kiyim insonni madaniyatli yoki odobli qilmaydi. Yaxshi xulq-atvor va madaniyat ichki fazilatdir, uni tashqi ko‘rinish bilan yashirib bo‘lmaydi.

5. Omad freymi:

Fransuzcha “*Après la pluie, le beau temps*” maqolini tarjimasida “*Yomg‘irdan keyin quyosh chiqadi*”. O‘zbek tilidagi “*Oyning o‘n beshi yorug‘ bo‘lsa o‘n beshi qorong‘u*” maqoliga to‘g‘ri keladi. Ushbu maqol fransuz xalqining optimistik dunyoqarashini ifodalaydi, ya‘ni har qanday qiyinchilikdan so‘ng yaxshilik kelishini anglatadi.

6. Mehnat freymi:

Fransuzcha “*Petit à petit, l’oiseau fait son nid*” maqolining tarjimasida “*Qadam-baqadam, qush uyasini quradi*”. O‘zbekcha “*Qimirlagan qir oshar*” maqoliga ekvivalent bo‘ladi. Fransuzlarning bu maqolidan sabr-toqat, izchillik va mehnatsevarlik qadriyatlarini aks ettirganligini bilib olishimiz mumkin [6; c.4-38].

Biz fransuz maqollarida milliy- madaniy freymlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarini ifoda qiluvchi semantik tuzilmalar hisoblanadi. shuningdek, bu freymlar orqali fransuz xalqining dunyoqarashi, urf-odatlar va tarixiy tajribalarini tushunish mumkin.

Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e‘tiqodini, umuman xalqning o‘ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir [4; c.16].

Shuningdek, maqollar har bir xalqning madaniyatni ko‘rsatib beruvchi, o‘ziga xos tajribasini, nasihatlarini va haqiqatlarini ifodalovchi ixcham iboralar hisoblanadi. Demak, maqollardagi milliy-madaniy freymlar bu iboralarning shakllanishi, ma‘nosi va qo‘llanilishiga ta‘sir etuvchi madaniy va milliy kontekstlarni bildiradi.

Bundan tashqari, maqollar ko‘pincha har bir madaniyatning kundalik hayotida ildiz otgan metaforalardan foydalanadi. Misol uchun, qishloq jamiyatidagi qishloq xo‘jaligi maqollari shahar jamiyatida bir xil ta‘sir va ma‘noga ega bo‘lmasligi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maqol madaniy o‘ziga xoslik vazifasini bajaradi. Bu har bir madaniyatning leksikasidagi o‘rnini ta‘kidlaydi.

Biz quyidagi fransuz maqollaridagi freym tahliliga diqqatimizni qaratamiz;

1. Donolik freymi:

“*Rien ne sert de courir, il faut partir à point*” tarjimasida: Yugurishdan foyda yo‘q, o‘z vaqtida boshlash kerak. La Fontenning “*Quyon va toshbaqa*” ertagidan olingan ushbu maqol maqsadga erishishda sabr-toqat va doimiylik muhimligini ko‘rsatadi. Bu fransuz mentalitetiga xos bo‘lgan muvaffaqiyatning o‘lchovli va o‘ylangan tasavvurini aks ettiradi. O‘zbek tilidagi “*Kech boshlagan kechikar*”, “*Vaqt aqchadur*” yoki “*Har narsaning vaqti bor*” maqollariga to‘g‘ri keladi.

2. Ish va qat‘iyat freymi:

“*C’est en forgeant qu’on devient forgeron*” tarjimasida: Amaliyot orqali temirchi bo‘lasan.

Tajriba orqali o‘rganish fransuz madaniyatidagi asosiy g‘oyadir. Ushbu maqol vaqt o‘tishi bilan olingan amaliyot va malaka ahamiyatini qadrlaydi. Bu maqolda har bir ish bir vaqtning o‘zida emas, balki asta-sekin va mashq qilish orqali o‘rganish tushuniladi. O‘zbek tilidagi “*Oz-oz o‘rganib usta bo‘lur*” maqoliga mos keladi.

3. Taqdir freymi:

“*Il ne faut pas mettre tous ses œufs dans le même panier*” tarjimasida: Barcha tuxumlarni bitta savatga solmaslik kerak.

Bu maqola xavf-xatarlar oldida ehtiyotkor bo‘lishni anglatadi, sarmoyalarni yoki hayotdagi tanlovlarini turli xil qilishni tavsiya qiladi. O‘zbek maqollaridan “*Bir savat tuxumga bir tepki kifoya*” maqoli ekvivalent bo‘ladi.

4. Inson va jamiyat freymi:

“*Au besoin on connaît l’ami*” tarjimasida: Muhtoj do‘st, albatta, do‘stdir. Haqiqiy do‘stlik qiyin paytlarda o‘lchanadi, degan fikrni ifodalaydi. Bu maqolni o‘zbek tilidagi ekvivalenti “*Do‘stni muhtojlikda sina*” yoki “*do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi*”

5. Gastronomiya freymi:

“Bonne cuisine et bon vin, c’est le paradis sur terre” tarjimasi: Yaxshi taom va yaxshi sharob, bu yerda jannat. Bu maqol fransuz mentalitetiga mosdir. Ya’ni, gastronomiya va vinoning ahamiyatini ko’rsatadi, bu yerda xushchaqchaliq va to’g’ri ovqatlanishdan zavqlanish muhim ahamiyatga ega. O’zbek tilidagi faqatgina ovqatga nisbat berilgan *“Issiq ovqat- tanga rohat”* maqoli ekvivalent bo’la oladi.

6. Haqiqat freymi:

“La vérité est une dame que l’on replonge volontiers dans son puits, après l’en avoir tirée” maqoli, o’zbek tilidagi tarjimasi: *“Haqiqat bir ayolki, u yuzaga chiqqandan so’ng, uning qudug’iga o’z xohishing bilan botasan”*.

Bu maqol haqiqat va uning qabul qilinishi haqida. Uning asosiy g’oyasi shundaki, odamlar haqiqatni topishga harakat qiladilar, lekin u ochiq-oydin ma’lum bo’lgach, ko’pincha undan qochishga yoki uni yana yashirishga moyil bo’ladilar yoki unitishga harakat qiladi.

7. Baxt freymi:

“Le bonheur des uns fait le malheur des autres” fransuz maqolining o’zbekcha tarjimasi: *“Bir kishining baxti boshkalarni baxtsiz kiladi”*[5; c.4-40]. Bu fransuz maqoli insonlarning baxti ko’pincha boshqalar hisobiga bo’lishi mumkinligini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, kimdir baxtli bo’lishi uchun, boshqa birov aziyat chekish yoki yo’qotishga duchor bo’lishi mumkin. Milliy-madaniy jihatdan tahlil qiladigan bo’lsak, fransuz mentalitetida bu maqol haqiqatparastlik va realizm bilan bog’liq. Fransuzlar jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni va ijtimoiy ziddiyatlarni ochiq tanqid qilishadi. Ya’ni, kapitalistik tuzumdagi g’olib va mag’lub tushunchalarini aks ettirishi mumkin. Raqobat muhitida kimdir yutadi, kimdir yutqazadi, degan g’oyani ilgari suradi. Baxt freymini tavsiylash uchun yana bir maqolni misol keltiramiz.

“Heureux au jeu, malheureux en amour” o’zbekcha tarjimasi *“O’yinda baxtli, sevgida baxtsiz”* Bu fransuz maqoli omadli o’yinchi muhabbatda omadsiz bo’lishi mumkin degan tushunchani ifodalaydi. Ya’ni, kimdir qimor yoki boshqa o’yinlarda g’olib bo’lsa, u muhabbat borasida omadsiz bo’lishi ehtimoli yuqori. Maqol hayotdagi muvozanat tushunchasiga asoslangan: inson bir sohada omadli bo’lsa, boshqa bir sohada kamchiliklarga duch kelishi mumkin.

8. Pul freymi:

“Si vous voulez connaître la valeur de l’argent, essayez d’en emprunter” bu maqolning o’zbekcha varianti *“Agar siz pulning qadrini bilishni istasangiz, qarz olib ko’ring”*. Bu maqol pulning haqiqiy qiymatini tushunish uchun uni qarzga olishni sinab ko’rish kerakligini bildiradi. Ya’ni inson pulning qanchalik muhimligini va uni topish yoki qaytarish qanchalik qiyin ekanligini faqat qarzga kirganida yoki uni qaytarishga majbur bo’lganida anglaydi. Fransuz mentalitetida tejamkorlik va moliyaviy mas’uliyat muhim o’rin tutadi. Bu maqol ham insonlarni moliyaviy mas’uliyat haqida o’ylashga undaydi.

9. Yolg’on freymi:

“Le mensonge donne des fleurs mais pas de fruits” o’zbekcha ekvivalenti *“Yolg’on gullaydi, ammo meva bermaydi”*. Bu maqolni mazmuni yolg’on bir muddat chiroyli ko’rinishi mumkin, lekin oxir-oqibat samarasiz bo’lishini anglatadi. Ya’ni yolg’on odamga vaqtinchalik foyda yoki yutuq olib kelishi mumkin, lekin uzoq muddatda baribir fosh bo’ladi va hech qanday haqiqiy natija bermaydi.

10. Sevgi freymi :

“L’amour est aveugle”. Bu fransuz maqoli *“Sevgining ko’zi ko’r”* degan ma’noni anglatadi. U shuni ifodalaydiki, inson sevib qolganida, u o’zining sevgilisi kamchiliklarini ko’rmaydi yoki ularga ahamiyat bermaydi. Sevgi hissiyotlari aqldan ustun kelib, odamni idealizatsiya qilishga olib keladi.

Xulosa. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Fransuz maqollari milliy madaniyat ko’zgusi bo’lib, ehtiyotkorlik, tajriba, qat’iyat, do’slik va hayot quvonchi kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Shuningdek, maqollar bu har bir xalqning madaniy merosidir. Ularda, xalqning barcha o’y – fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe’l - atvori va e’tiqodi nomoyon bo’ladi. Fransuz va o’zbek maqollaridagi mavzular o’xshash bo’lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy-madaniy rang-baranglikni ta’minlaydi. Fransuz va o’zbek maqollarini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o’rganish natijasida ularning milliy-madaniy freymilar orqali aks etishini ko’rishimiz mumkin. Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, har ikkala tilga mansub maqollar xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va milliy mentaliteti bilan bog’liq holda shakllangan. Fransuz maqollarida asosan ijtimoiy hayot, axloqiy qadriyatlar va realistik dunyoqarash yetakchilik qilsa, o’zbek maqollarida esa an’anaviy tarbiya, axloqiy-me’yoriy qadriyatlar va diniy-ta’limiy unsurlar ustunlik qiladi. Bunda “mehnat”, “donishmandlik”, “oila” va “jamiyat” kabi asosiy freymilar har ikki tilda kuzatilgan bo’lsa-da, ularning semantik yuklamasi turlichadir. Tahlil jarayonida fransuz maqollarida individualizm, shaxsiy muvaffaqiyat va ratsional yondashuv asosiy o’rin egallashi, o’zbek maqollarida esa jamoatchilik fikri va axloqiy normalarga kuchli e’tibor qaratiladi. Bu esa har ikkala til egalari orasida madaniy tafovutlar mavjudligini tasdiqlaydi. Kelajakda maqollardagi milliy-madaniy freymilar tahlilini

yanada kengaytirish, ularning qo'llanilish xususiyatlari va tarjima muammolarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari tarjimashunoslik va chet tili o'qitish metodikasi sohasida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ayrapetyan Irina. (2021). *Fransuz, o'zbek va rus tili maqollarida mentalitet va milliylik. Евразийский журнал академических исследований*, 1(9), 594–598. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/233>
2. Nasirov Abduraxim Abdimutalipovich. "Fransuz, o'zbek va rus tillaridagi proverbial frazeologizmlarning semantik-stilistik va milliy-madaniy xususiyatlari". – 10.00.06 (Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik). 2016-yil, 10-noyabr.
3. Salimova M.J., Yakubov Ja.A. (2018). *Fransuz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari. // Вестник магистратуры*, №11-2, 108-110.
4. Jo'rayeva M.M. (2017). *Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Toshkent.
5. Tursunov, X. (2014). *Dictionnaire d'aphorismes français-ouzbek / Французча-ўзбекча афоризмлар луғати. Наманган*.
6. Moy, S. (2012). *100 proverbes français (les plus courants) et leurs significations. Franc-Parler*.
7. Boltayevna, Ikromova Lola. "Expression of seasons in french proverbs and sayings and their equivalents in uzbek." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 458-461.
8. Boltayevna, Ikromova Lola. "Use of proverbs in the educational process." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 462-466.
9. Boltayevna, Ikromova Lola. "Cultural significance of uzbek folk proverbs and sayings." *International conference on modern development of pedagogy and linguistics*. Vol. 1. No. 1. 2024.
10. Boltayevna, I. L. (2024, January). Cultural significance of uzbek folk proverbs and sayings. In *international conference on modern development of pedagogy and linguistics* (Vol. 1, No. 1, pp. 173-176).
11. Ikromova, Lola. "Maqol va matallarning qiyosiy chog'ishtirma tahlili (fransuz va o'zbek maqol va matallari misolida)." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
12. Xolova, S. (2023). *Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm: tasnif va tadqiqot tahlili. Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 27(27). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679
13. Boltayevna, Ikromova Lola. "Expression of phraseological units in french." *american journal of applied medical science* 2.5 (2024): 211-216.
14. Boltayevna, Ikromova Lola. "The role of animals in french fairy tales." *american journal of applied medical science* 2.5 (2024): 217-221.
15. Ikromova, Lola. "Maqol va matallarning milliy-madaniy jihatlari." *Журнал иностранных языков и лингвистики* 2.6 (2021).